



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



IQLIM O'ZGARISHLARI SHAROITIDA "INKLYUZIV IQTISODIY O'SISH"GA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR

Elov Ashrafjon

PhD, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosh ilmiy xodimi.

Yozishmalar uchun elektron pochta: ashrafelov@mail.ru

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqt: 24.06.2024
Qabul qilingan vaqt: 19.07.2024

Tayanch so'z va iboralar: iqlim o'zgarishi, inklyuziv, iqtisodiy o'sish, barqaror o'sish, tenglik, qashshoqlik, bandlik, daromad.

Annotatsiya

Maqolada iqlim o'zgarishlari sharoitida inklyuziv iqtisodiy o'sish prinsiplarini joriy qilish zaruriyati, "inklyuzivlik" g'oyasining evolyutsiyasi, "inklyuziv iqtisodiy o'sish" tushunchasiga oid ilmiy qarashlar va ularning ilmiy-nazariy tahlili hamda ushbu sohaning nazariy asoslarini takomillashtirishga oid muallif qarashlari bayon etildi.

SCIENTIFIC VIEWS AND APPROACHES TO "INCLUSIVE ECONOMIC GROWTH" UNDER CLIMATE CHANGE

Elov Ashrafjon

PhD, Chief scientific officer of the University of Public Safety of the Republic of Uzbekistan

Corresponding author email: ashrafelov@mail.ru

ARTICLE INFO

Received: 24.06.2024

Accepted: 19.07.2024

Key words: climate change, inclusion, economic growth, sustainable growth, equity, poverty, employment, income.

Abstract

This article describes the need to implement the principles of inclusive economic growth in the context of climate change and the evolution of the ideas of "inclusiveness". At the same time, scientific views on the concept of "inclusive economic growth" and their scientific and theoretical analysis are indicated, as well as the author's views on improving the theoretical foundations in this direction.

Kirish

Iqtisodiy rivojlanish konsepsiyalariiga asosan ko'rilgan chora-tadbirlar atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazib, buning natijasida yuzaga kelgan iqlim o'zgarishlari nafaqat barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga, balki kelgusida avlodlarning birlamchi ehtiyojlarini qondira olish imkoniyatini cheklamoqda. Iqtisodiy o'sish sur'atlari jamiyatning barcha a'zolari turmush tarzida aks etmaganligi va aholi qatlamlari o'rtaida tabaqalanishning kuchaytirayotganligi noroziliklarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda "rivojlanishning turg'unligi, qashshoqlik va atrof-muhitning yomonlashuvi dunyoning asosiy uchta muammosidir" [1]. Shu sababli, so'ngi o'n yilliklarda iqlim o'zgarishlari muammolari sharoitida inson manfaati va farovonligiga yo'naltirilgan keng qamrovli - inklyuziv rivojlanish yondashuvlari olimlar, siyosatchilar va jamoatchilik e'tiborini o'ziga

tortayotganligini ko'rish mumkin. Bunda, inklyuziv iqtisodiy o'sish inklyuziv rivojlanishning tarkibiy qismi sifatida ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyot sohalarni rivojlantirish, investitsiya va tashqi savdo siyosatini amalga oshirish masalalari bo'yicha maslahatchisining birinchi o'rinosasi T.Ishmetov "o'n yil davomida bizda yiliga 6-7 foiz o'sish kuzatildi. Bu juda yaxshi, lekin o'sish inklyuziv emas edi, shuning uchun bu aholining juda kichik qismini xursand qildi" [2] deya qayd etgan.

Shu nuqtai nazaridan, global iqlim o'zgarishlari sharoitida O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash zaruriyati har qachonidan dolzarb ekanligini inobatga olgan holda, ushbu tushunchani aniqlashtirish orqali iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini o'lchash indikatori va mezonlarini ishlab chiqish, o'sish tendensiyalarini baholash va kamchiliklarni bartaraf etish

bo'yicha ilmiy yechimlar topish zaruriyati mavjud.

Adabiyotlar sharhi.

"Inklyuzivlik" g'oyasining evolyutsiyasi uch bosqichda rivojlanib, birinchi bosqichda jamiyatning ayrim ijtimoiy zaif guruuhlarini qo'llab-quvvatlash masalariga oid g'oyalar ilgari surilgan, ikkinchi bosqichda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga barcha aholi qatlamlari ishtirokini ta'minlash, uchinchi bosqichda esa barcha uchun imkoniyatlarni kengaytirish va tenglikni ta'minlash, iqtisodiyot va taraqqiyotning natijalari va afzalliklaridan teng foydalanish g'oyalari ilgari surilgan [3]. Mazkur g'oyalarni iqtisodiy o'sish nazariya va amaliyotiga transformatsiya qilinishi, yangi konsepsiya – inklyuziv iqtisodiy o'sish konsepsiyasini shakllanishiga olib keldi.

Inklyuziv iqtisodiy o'sish nazariyasining ayrim jihatlarini paydo bo'lshiga g'arb iqtisodchilar X.Cheneri va uning jamoasining "aqli qayta taqsimlash siyosati" [4] va N.Kakvani va E.Perniyaning "barchaning daromadlarini bir xil sur'atda oshirish orqali qashshoqlikni kamaytirishi" ga [5] oid qarashlari asosida yuzaga kelgan bo'lsa, Nobel mukofoti sohibi J.Stiglitzning "jamiyatda tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish" [6], fransuz iqtisodchisi T.Pikettining "mamlakatlardagi daromad va kapital taqsimotidagi tengsizlik" [7], amerikalik iqtisodchilar

J.Robinson va D.Acemogluning "boshqaruva samaradorligi, farovonlik va qashshoqlikning kelib chiqishi"ga [8] oid qarashlari asosida takomillashdi.

Inklyuziv rivojlanish konsepsiyasini amaliy joriy qilishning eng yuqori cho'qqisi BMT tomonidan 2015-yilda qabul qilingan "Dunyomizni o'zgartirish: 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish kun tartibi" ma'ruzasi bo'lib, undagi 17 ta maqsadning deyarli barchasi inklyuziv iqtisodiy o'sishga qaratilgan bo'lsada, hozirga qadar "inklyuziv iqtisodiy o'sish" atamasining olimlar o'rtasida yagona konsessusuga keltingan aniq ta'rifi ishlab chiqilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ish jarayonida iqtisodiy jarayonlarni o'rganishning ilmiy usullari – tizimli tahlil, umumlashtirish, guruhlashtirish, tahlilning mantiqiy va taqoslama usullari, qiyosiy tahlil, istiqbolli prognozlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Inklyuziv iqtisodiy o'sish tushunchasiga oid qarashlarni (1-jadvalda batafsil keltirilgan) mazmuniga ko'ra bir-biridan keskin farq qilmagan bir nechta guruhlarga tizimlashtirish mumkin.

1-jadval

"Inklyuziv iqtisodiy o'sish" tasnifi dekompozitsiyasi [20]

Nº	Konsepsiya muallifi	Barqaror iqtisodiy o'sish	Turmush sifatini oshirish	Kambag'allikni qisqartirish	Qashshoqlikni bartaraf etish	Bandlikni ta'minlash	Tengsizlikni bartaraf etish	Teng imkoniyatlar (sharoit) yaratish	Daromad va imtiyozlarni adolatlari taqsimlash	Ijtimoiy himoyani kuchaytirish	Keng qamrovilik
1	BMTning Savdo va taraqqiyot tashkiloti		+				+	+	+		
2	E.Ianchovichina	+			+	+		+	-		+
3	Xalqaro valyuta jamg'armasi	+				+		+	+	+	+
4	S.Valerie	+						+	+		+
5	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti							+	+		+
6	J.Stiglitz		+			+			+	+	+
7	J.Robinson, D.Acemoglu							+	+		
8	A.Gurria	+						+	+		
9	G.Rauniyar, K.Ravi							+		+	
10	I.Ali, H.Son							+		+	
11	Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi komissiyasi		+					+			
12	R.Anand va boshqa.	+							+		
13	S.Klasen			+			+	+			+
14	V.Alekhina, G.Ganelli								+		

15	M.Ravallion, H. Son			+							
16	D.Dollar, A.Kraay			+							
17	C.Dörffel, S.Schuhmann		+					+			
18	M.Khan				+						
19	R.Agarval	+		+		+	+				
20	I.Gersonskaya	+				+	+	+			
21	F.Fourie			+	+	+			+	+	
22	R.T.Burgenov va boshqa.					+	+	+			
23	S.Zhu	+					+	+			+
24	C.F.Rammelt, J.Gupta				+			+	+		
25	R.T.Burgenov							+	+		
26	Hasmath R.						+	+	+	+	
27	M. Asqarova va boshqa.	+	+					+	+		

Birinchi guruh qarashlarda o'sish inklyuziv bo'lishi uchun aholi turmush sifatini birdek yaxshilashi va o'sish natijalari aholi hayotida aks etishi, yuqori va barqaror iqtisodiy o'sish asosiy shart sifatida ko'rildi.

Jumladan, BMTning Savdo va taraqqiyot tashkiloti "inklyuziv iqtisodiy o'sish" tushunchasini "iqtisodiy o'sishni nazarda tutib, bir vaqtning o'zida hammaning hayot sifatini birdek yaxshilashga yordam berishi" [9] deya ta'riflagan. Shuningdek qo'shimcha talablar sifatida, - iqtisodiy samaradorlik natijalari nafaqat hukumat tomonidan qayta taqsimlanishi, balki barcha uchun iqtisodiy, ijtimoiy, ekogolok qulay va kamsitilmagan sharoitlar yaratilishi, pirovardida ushbu sharoitlar aholing barcha guruhlaring hayot sifatini oshirishi va ular o'rtaсидagi tengsizlikni kamaytirishi lozim.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi komissiyasi tushunchani "mamlakat aholisining barcha guruhlaring hayot sifatini yaxshilashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va teng imkoniyatlarni ta'minlash bilan birga iqtisodiy o'sish" [10] deya ta'riflagan. Biz ushbu ta'rifga to'liq qo'shilamiz. Har qanday iqtisodiy islohatlarning yakuniy natijasi aholi turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan bo'lishi, bunda ayniqsa global iqlim o'zgarishlari sharotida aholing zaif qatlamlariga teng imkoniyat va sharoitlar yaratish orqali ularni iqtisodiy faoliyatga keng jalg qilish lozim.

Nemis olimlari esa "fuqarolarning jarayonlarga ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirishni o'z ichiga olgan va jamiyat asoslari (institutlar va atrof-muhit) barqarorligiga muvofiq inson farovonligi bilan bog'liq natijalarga yordam beradigan ijtimoiy taraqqiyot (rivojanish)" [11] deya tushunchani ta'riflagan. Ushbu ta'rifning farqli jihatni farovonlik uchun jamiyat asoslari, xususan atrof-muhit barqarorligi va o'sishning ijtimoiyligini ta'minlash talabidir.

Ikkinchi guruh qarashlarda tengsizlikning bartaraf etish, daromad va imtiyozlarniadolatli taqsimlash masalasi inklyuziv o'sish tushunchasini ifodalashda markaziy o'rinni egallaydi.

Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ushbu tushunchani "jamiyatda moddiy va nomoddiy ne'matlar adolatli taqsimlangan va aholing barcha qatlamlari uchun imkoniyatlar yaratadigan iqtisodiy o'sish" [12] deya ifodalagan. Biz ushbu fikrga qisman qo'shilamiz. Hammaning manfaatlarini to'liq

qamrab olinmasligi, inqiroz va undan keyingi davrlarda aholing zaif qatlamlari farovonligini xavf ostiga qo'yadi. Shu nuqtaidanzazaridan bugungi kunda inklyuziv o'sishga oid yangi va takomillashgan modellarni ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

Rossiyalik olima I. Gersonskaya inklyuziv iqtisodiy o'sishni "milliy daromadni davlat tomonidan adolatli qayta taqsimlash orqali ijtimoiy tengsizlik darajasini pasaytirish va aholi turmush sifatini yaxshilash hamda qulay shart-sharoitlarni yaratish, eng avvalo, iqtisodiy, ijtimoiy-ekologik va axloqiy, har bir inson uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash va jamiyatda iqtisodiy o'sishning afzalliklarini teng taqsimlash jarayoni" [13] kabi ifodalashni taklif qilgan. Fikrimizcha, muallif tushunchani keng ta'riflab, uning iqtisodiy o'sish natijalarini aholi hayotida aks ettirish va ijtimoiy-ekologik qulay shart-sharoitlar yaratish kabi qarashlari e'tiborga loyiqdirdi.

Uchunchi guruh qarashlarda iqtisodiy o'sishning inklyuzivlik sharti sifatida aholing zaif qatlamlarini jarayonlarga to'liq qamrab olish, ularning manfaatlariga ustuvorlik berish va qashshoqlikni bartaraf etish birinchi o'rindagi vazifa sifatida ko'rildi. Bunda, asosiy e'tibor daromadlarni qayta taqsimlashga emas, balki ularga teng imkoniyatlar yaratish talab qilinadi.

Masalan, Jahon banki bo'lim rahbari E.Ianchovichina inklyuziv iqtisodiy o'sish tushunchasini "qashshoqlikni kamaytirishning zaruriy va hal qiluvchi sharti bo'lgan iqtisodiy o'sishga qaratilgan barqaror o'sish" [14] ekanligini ta'kidlaydi. E.Ianchovichina samarali bandlikni inklyuziv o'sishning asosiy vositasi sifatida ko'rib, bandlikning o'sishi daromad manbalari yaratilishi va ehtiyojlarni qondirish imkoniyatini oshishiga sabab bo'ladi.

Yoki, Amerikalik iqtisodchi M.Ravallion va H. Sonlarning fikriga ko'ra, "iqtisodiy o'sishdan kambag'allar mutlaq ma'noda foyda ko'rsalar, o'sish inklyuziv hisoblanadi" [15]. Biroq, global iqlim o'zgarishlari sharoitida kambag'al qatlam eng ko'p zarar ko'ruchchi bo'lib, shu ma'noda inklyuziv iqtisodiy o'sish prinsiplari bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek olimlari ham "inklyuzivlik" tushunchasini "aholing turli guruhlari o'rtaсидagi iqtisodiy o'sishdan olinadigan foydani teng taqsimlash tushuniladi" [15] deya ta'riflagan. Shuningdek, ularing fikriga ko'ra, "inklyuziv

o'sishning asosiy natijalari keng ma'noda jamiyat rivojlanishining muhim me'zonlari: farovonlik,adolat va inson imkoniyatlarining kengayishi va uning ishlab chiqarishdagi faol ishtiroki va manfaatlar taqsimoti hisoblanadi" [15]. Biroq, iqtisodiy o'sishning an'anaviy avval iqtisodiy o'sish va keyinchalik uning natijalarini qayta taqsimlash modeli amaliyotda samarali ishlamasligi kuzatiladi.

To'rtinchi guruh qarashlarida inklyuziv iqtisodiy o'sishda keng qamrovilik va barcha ishchi kuchining samarali yoki yuqori bandligi asosiy hisoblanadi.

Yevropa Ittifoqi komissiyasi inklyuziv o'sish tushunchasini "iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy uyg'unlikni ta'minlaydigan yuqori bandlik iqtisodiyotini rivojlantirish" [16] deya qayd etgan. Bunda, inson kapitaliga sarmoya kiritilishi, mehnat bozorini isloq qilish, o'qitish va ijtimoiy himoya tizimlarini yaxshilash, qashshoqlikni kamaytirish orqali yaxlit jamiyat qurilishi lozim.

Xalqaro valyuta jamg'armasi ekspertlarining fikricha "iqtisodiy o'sishning afzalliklari va imkoniyatlarini keng taqsimlashdan iborat barqaror va keng ko'lamli tarmoqlarni qamrab oluvchi o'sishni aks ettiradi, butun ishchi kuchi uchun samarali bandlikni, bozorlar va resurslarga kirishda teng imkoniyatlarni ta'minlaydi va zaif aholi qatlamini himoya qiladi" [17]. Mazkur ta'rif boshqalardan samarali bandlikni ta'minlash inklyuziv iqtisodiy o'sishning bir talabi sifatida alohida ko'rsatib o'tilganligi bilan farqlanadi.

Londonlik iqtisodchi M.Khanning fikriga ko'ra "osish, agar u bandlikning yuqori darajasini va ish haqining oshishini qo'llab-quvvatlasa, inklyuziv hisoblanadi" [18]. Shuningdek, inklyuzivlik qashshoqlik va daromadlarni taqsimlash masalasidan ham keng bo'lib, u farovonlik, siyosiy jarayonlar va ijtimoiy hayotda ishtirok etish kabi boshqa o'lchovlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- inklyuziv rivojlanish kontseptsiyasi iqtisodiy o'sishning barcha uchun manfaatli bo'lgan kontseptsiyalarini aniqlashga urinishlar natijasida yuzaga kelib, bugungi kunda "inklyuziv iqtisodiy o'sish" tushunchasi ko'p o'lchovli mazmunga ega va uni talqin qilishda turli qarashlar mavjudligi bilan tavsiflanadi.

- inklyuziv iqtisodiy o'sishning maqsadi, - iqtisodiy o'sishni barqarorligini ta'minlash orqali uning aholi turmush tarzida "aks ettirish" va aholining barcha qatlamlari farovonligini ta'minlashda ifodalanadi;

- o'z maqsadlariga erishish uchun quyidagi choralar: barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, jamiyatdagি tengsizlikni bartaraf etish, bandlik va mehnat intensivligini oshirish, daromad va resurslarniadolatli taqsimlash, ijtimoiy himoyani oshirish, hududlar va aholi qatlamlari o'rtaqida tafoutni kamaytirish va boshqa choralarini ko'rishni talab va targ'ib qiladi;

- inklyuziv iqtisodiy o'sish xususiyatlari global xavf va xatarlar, xususan iqlim o'zgarishlari ta'sirlariga javob berishda tezkor va samarali bo'lish bilan birga, uning oqibatlarini yumshatish, moslashish va qarshi kurashishda qo'shimcha himoya chizig'ini yaratishga imkon beradi;

- jamiyatda inklyuziv iqtisodiy o'sish talablariga erishish global iqlim o'zgarishi sharotida barqaror o'sishni ta'minlaydi va qo'llab-quvvatlaydi;

- global iqlim o'zgarishlari iqtisodiy o'sishni keng qamrovli bo'lishini talab qilayotganligi sababli, bugungi kunda iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini baholashning milliy metodologiyasini ishlab chiqish zaruriyati mavjud.

Global iqlim o'zgarishi sharotida inklyuziv iqtisodiy o'sish prinsiplarini joriy etish va nazariy asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagilar taklif etiladi:

1. Global iqlim o'zgarishlari sharotida inklyuziv iqtisodiy o'sish tavsiflovchi xususiyatlar sifatida quyidagilarni belgilash:

- barqaror iqtisodiy o'sishga erishish va u barcha aholi qatlamlarining turmush sifatini yaxshilashi;

- jamiyatning barcha a'zolari o'z ehtiyojlarini qondira olishi va farovon yashashi uchun teng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish;

- resurslar, iqtisodiy faoliyat natijalari (daromadlar) va imtiyozlarniadolatli taqsimlash, barcha turdag'i tengsizliklarni bartaraf etish;

- aholi farovonligini ta'minlashda, ayniqla kambag'allikni kamaytirish va qashshoqlikni bartaraf etish uchun ish o'rinnarini ko'paytirish va bandlikni ta'minlash;

- aholining kuchsiz qatlaming ijtimoiy himoyasini oshirish;

- yuqoridagi barcha chora-tadbirlarda keng qamrovilikni ta'minlash.

2. "Inklyuziv iqtisodiy o'sish" tushunchasini "global iqlim o'zgarishi sharotida aholining barcha qatlamlari turmush sifatini oshirish maqsadida teng imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiy faoliyat natijalari (daromad) va imtiyozlarniadolatli taqsimlash orqali erishiladigan keng qamrovli barqaror o'sish" deya e'tirof etish.

Mazkur ta'rifdan kelib chiqadigan iqtisodiy o'sishning inklyuzivligini ta'minlashning o'ziga xosligi va asosiy shartlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- 1) iqtisodiy o'sish natijasida aholining barcha qatlamlari hayot sifatining oshishi yoki iqtisodiy o'sish quyi qatlaming ham turmush tarzida aks etishi;

- 2) "aholining barcha qatlamlari" tarkibida yuqori va o'rta qatlam bilan birgalikda aholining quyi zaif qatlam (qashshoqlar, kambag'allar, kam ta'minlanganlar, ishsizlar, yordamga muhtoj)larining ham nazarda tutilishi;

- 3) aholining zaif qatlami nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning yakuniy bosqichida, balki ularga teng imkoniyat va shart-sharoit yaratib berishi bilan dastlabki bosqichlarida keng qamrab olinishi;

- 4) aholining barcha qatlamlari o'z ehtiyojlarini qondirishi va layoqatiga yarasha turmush tarzini kechirishi uchun resurslar, iqtisodiy faoliyat natijalari (daromad) va imtiyozlaradolatli taqsimlanishi lozim.

- 5) global iqlim o'zgarishlari iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri aniqligi sababli, o'sish inklyuziv bo'lishi uchun barqarorlik xarakteriga erishish. Bunda, avvalo global iqlim o'zgarishlarini iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish va moslashish choralarini inobatga olgan holda rivojlanish strategiyalarini belgilash lozim. Yoki, inklyuziv iqtisodiy o'sish barqaror bo'lgandagina aholining keng qatlamlari manfaatlarini qamrab ola oladi.

6) bunday islohatlardan eng avvalo aholining zaif qatlami manfaat ko'rishi va o'z-o'zidan o'sishni rag'batlantirishi kuzatiladi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Jiang, A., Chen, C., Ao, Y., & Zhou, W. (2022). Measuring the Inclusive growth of rural areas in China. *Applied Economics*, 54(32), 3695–3708. <https://doi.org/10.1080/00036846.2021.1923640>
2. Ишметов Т. Нужен не просто рост, а инклюзивный экономический рост. 29 октября 2021 г. // <https://www.gazeta.uz/ru/2021/10/29/gdp-growth/>
3. Родина Г.А. Инклюзивный экономический рост и перспективы России // Теоретическая экономика. 2019. №10 (58). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuzivnyy-ekonomicheskiy-rost-i-perspektivy-rossii> (дата обращения: 02.05.2024).
4. Chenery Hollis, Ahluwalia M., Bell C., Duloy J., Jolly R., Institute of Development Studies : University of Sussex. Redistribution with growth (English). Washington, D.C.: World Bank Group.// <http://documents.worldbank.org/>
5. Kakwani Nanak & Pernia Ernesto, (2000). What is Pro-poor Growth?. *Asian Development Review*. 18. 10.1142/S0116110500000014.
6. Joseph E. Stiglitz. The Price of Inequality. New Perspectives Quarterly 30(1), January 2013, DOI:10.1111/nppu.11358: – P. 13-14 // https://resistir.info/livros/stiglitz_the_price_of_inequality.pdf
7. Piketty, Thomas. Capital in the Twenty-First Century, Cambridge, MA and London, England: Harvard University Press, 2014. <https://doi.org/10.4159/9780674369542>. – P. 35.
8. Robinson, James A, and Daron Acemoglu. 2012. Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty. Random House. Copy at <http://www.tinyurl.com/y57yqpy8>
9. Stark contrasts in inclusive growth – progress towards equal opportunities needed everywhere // <https://sdgpulse.unctad.org/>
10. ЕАЭС. Инклюзивный экономический рост в государствах - членах ЕАЭС и мире, 2020 год. // <https://eec.eaeunion.org/>
11. Dörffel, C., Schuhmann, S. What is Inclusive Development? Introducing the Multidimensional Inclusiveness Index. *Soc Indic Res* 162, 1117–1148 (2022). // <https://doi.org/10.1007/s11205-021-02860-y>
12. <https://www.oecd.org/inclusive-growth/#introduction>
13. Герсонская И.В. "Концепция инклюзивного экономического роста: новые возможности для развития российского общества". Вестник Челябинского государственного университета, №. 6 (452), 2021, –С. 53. //<https://cyberleninka.ru/article/n/konseptsiya-inklyuzivnogo-ekonomicheskogo-rosta-novye-vozmozhnosti-dlya-razvitiya-rossiyskogo-obschestva>
14. Ianovichina, E. (2012). "Chapter 8. What Is Inclusive Growth?". In Commodity Price Volatility and Inclusive Growth in Low-Income Countries. USA: International Monetary Fund. Retrieved Apr 24, 2024, from <https://doi.org/10.5089/9781616353797.071.ch008>
15. Asqarova M.T., Amirov L.F., Islomov A.A., Yaxshimuratova A.R. Inklyuziv iqtisodiy o'sish: O'quv qo'llanna. –T.:2019. –Б. 114.
16. Ravallion, M., S. Chen, 2003, "Measuring Pro-Poor Growth," *Economics Letters*, 78, – PP. 93–99.
17. European Commission, A strategy for smart, sustainable and inclusive growth. 2020. – P. 16.
18. IMF, Fostering Inclusive Growth, 2017.
19. M.H.Khan, "The Political Economy of Inclusive Growth", In: Promoting Inclusive Growth Challenges and Policies: Challenges and Policies, OECD, The World Bank, 2012. – P.15
20. Muallif tomonidan shakllantirildi.